

KUNJUT YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

**Meyliyeva Shoxista Rustamovna**

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti "Irrigatsiya va melioratsiya"  
kafedrasi assistenti*

**Bobojonov Nurimon Shahriyor o'g'li**

*"PT (Suv xo'jaligi va melioratsiya)" ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda butun dunyoda insonlar ongli ravishda sog'lom turmush tarzi bilan ovqatlanishga odatlanayotgan bir davrda kunjut urug'laridan va moyidan foydalanish juda kengayib bormoqda. Dunyoga kunjut urug,,ini eksport qiluvchi mamlakatlarga Efiopiya (18% dunyo eksporti tonnalarida), Hindiston (14%) va Sudan (11%) davlatlari kiradi. Kunjut qurg,,oqchilikka chidamli ekin bo,,lgani uchun yil sayin qurg,,oqchil Efiopiya davlatining eksport xajmi oshib bormoqda. Dunyo bozorida import xajmida 2016 yilda, jami urug' hajmi 2,1 mln tonnaga teng bo'lgan. Eng katta xajmda kunjut urug,,i import qiluvchi mamlakatiga Xitoy kirib 2016 yilda (45% jami importning), Yaponiya va Turkiya jami import kunjut urug'ining 7% ini import qilishadilar.*

**Kalit so'zlar:** *Kunjut navlari, kunjut yetishtiriladigan davlatlar, ekish me'yori, ekish sxemasi.*

**KIRISH**

Bugungi kunda dunyo aholisi tomonidan kunjut yetishtirishga katta e'tibor berilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra 2016 yilda dunyo bo'yicha 8 mln tonna kunjut urug'i yetishtirilgan bo'lsa, 2025 yilgan kelib bu ko'rsatkichning 9,5 mln tonna bo'lishi kutilmoqda. Bunga sabab Osiyo va Afrikalik aholining migrant sifatida ko'chib ketishi va ular o'zlari borgan xududlarda iste'mol mahsulotlari sifatida o'rgangan mahsulotlaridan oziq-ovqat tayyorlashlari sabab bo'ladi. Dunyoda kunjutni eng ko'p istemol qiladigan mamlakatlardan biri Tanzaniya davlati bo'lib, yetishtirilgan kunjutning 21 foizini, Xitoy 19 foizini, Sudan 9% ini, Myanma 6% ini, Indiya 6% ini, Efiopiya 6% ini, Nigeriya 6% ini iste'mol qiladilar. Ushbu mamlakatlar jami dunyoda ishlab chiqilgan kunjut urug'larini 74% o'z oshxonalarida sarflaydilar. Tanzaniyada keyingi yillarda (2006 -2016 yillarda) kunjut urug,,larni iste'mol qilish 32,5 % ni tashkil qilsa, Xitoyda esa, 9,1 foizga oshganligi aniqlandi. Bu mamlakat keyingi yillarda kunjut urug'laridan moy olishni ko'paytirmoqdalar. Tanzaniya davlatida bir yilda odam boshiga 30,8 kg, Sudanda 17,6 kg (bir yilda bir odamga) va Myanma 10,1 kg (bir odamga bir yilda) moy to'g'ri keladi. Xitoy davlatida bir odamga 1,1 kg va Hindistonda esa 0,4 kg kunjut moyi to'g'ri kelishi haqida ma'lumotlar bor. O'rtacha dunyo bo'yicha olganimizda bir yilda bir odamga 1,1 kg kunjut moyi to'g'ri keladi. Kunjut Osiyo va Afrika davlatlari aholisi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qishloq xo'jalik ekinlaridan biri xisoblanadi. Tanzaniya, Xitoy, Sudan, Myanma, Hindiston, Efiopiya,

Nigeriya davlatlarida kunjutdan milliy ovqatlar tayyorlashadi. Shuningdek ularda kosmetologiyadava farmatsevtika sanoatida ham kunjut urugʻlari va barglaridan foydalaniladi.

Ekish uchun tavsiya etiladigan navlar: Toshkent-122, Qora shahzoda.

Urugʻlik tanlash va ekishga tayyorlash. Ekish uchun yirik, toʻq va shikastlanmagan urugʻlar tanlab olinadi.

Yerni ekishga tayyorlash. Shuni esda tutish lozimki, kunjut bir bor ekilgan yerga 6–7 yildan keyin qayta ekiladi, aks holda kasallik va zararkunandalar oʻsimlikka katta zarar yetkazadi. Yerni ekishga tayyorlash ishlari oʻtmishdosh oʻsimliklarni qoldiqlarini tozalashdan boshlanadi, yer 20–25 sm chuqurlikda yumshatiladi, tekislanadi va 70–60 sm kenglikda joʻyaklar olinadi.

Ekish muddati. Kunjut yerning tobiga kelishiga qarab aprel-may oylarida, angʻizga esa iyun oyining oxirida ekiladi.

Ekish meʼyori va sxemasi. Kunjut 60x20 yoki 70x20 sm sxemada ekiladi. Ekish chuqurligi 3–5 sm. 10 sotixga 500–600 gramm urugʻ sarflanadi.

Parvarishlash. Oʻsimliklar yagana qilinmaydi. Gullaguncha 1-2 marta, gullash davrida 2 marta sugʻoriladi. Sizot suvlari yaqin joylashgan tomorqalarda 1-2 marta sugʻorish kifoya qiladi. Qator oralari har suvdan keyin yetilishi bilan chopiq qilinadi.

Oʻgʻitlash. Mahalliy oʻgʻit yerni ekishga tayyorlash paytida solinadi. Goʻng qancha koʻp solinsa, shuncha yaxshi boʻladi. Zarur hollarda (goʻng yetmaganda) 10 sotixga 6-8 kg fosfor, 2-3 kg azot sepiladi.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Kunjutda kasalliklardan fuzarioz va vertitsillioz vilt, un shudring kasalliklari, zararkunandalardan esa shiralar, qandalalar, tunlamlar, bargxoʻr qurtlar kabi zararkunandalar kuzatiladi.

Un shudring kasalligiga qarshi oʻsimlikni oʻsuv davrida Duplet TT, 22,5% em.k. (t.e.m; tebukonazol+triadimefon) – 0,3-0,5 l/ga sarf-meyorlarda qoʻllaniladi.

Zararkunandalarga qarshi Moyermetrin 25% em.k. (t.e.m; sipermetrin) – 0,3-0,4 l/ga meyorda qoʻllaniladi. Kunjutdagi kasallik va zararkunandalarga qarshi ishchi suyuqlik sarfi 10 sotixga 20 l hisobida olinadi.

Hosilni yigʻishtirish. Kunjut poyasining barglari sargʻayib toʻkila boshlagan va pastki koʻsakchalari yetilgan paytda yigʻib olinadi va quritiladi. Poya bogʻlamlarini pastga qaratgan holda osib quritish mumkin emas – koʻsaklar yorilib, urugʻlar toʻkilib ketadi. Koʻsaklardagi hosil yanchib olinadi.

Poyalarini joyida yaxshilab maydalab, dagʻal xashak oʻrnida mollarga bersa boʻladi

Kunjut (*Sesamum L.*) kunjutdoshlar (kunjutgullilar oilasi)ga mansub bir yoki koʻp yillik oʻsimliq 35 tacha turi bor (22-rasm) Vatani – Afrika, Hindiston, Xitoy, Misr, Gresiya, Eron va boshqa mamlakatlarda qadimdai eqiladi. Buyi 12 m, poyasi tik sershoh 4 yoki 8 qirrali, bezli tuklar bilan qoplangan. Oʻq ildizi 1m gacha chuqurga kiradi, barglari qisqa bandli, oʻrta qismidagi barglar uzun bandli, yirik chetlari oʻyikli yoki tekis. Guli tutashgan 5 ta toj bargli, yirik (4 smcha), och pushti, binafsha rang yoki



oq, barg qo'ltiqlarida 13, ba'zan 5 tadan bo'ladi. Mevasi 4, 6 yoki 8 qirrali ko'sakcha, uzunligi 35sm. Ko'sakcha pishganda qirralaridan chatnab, urug'i sochiladi. Bitta ko'sakchada 80 tacha urug' bo'ladi, ming dona urug'i 25 g. Po'sti archilgan urug'idan pasta taxin moyi olinib, undan taxin holvasi tayyorlanadi. Qaynoq presslash yo'li bilan olingan moydan texnikada foydalaniladi. Moyi va urug'i oziqovqat sanoati hamda medisinada ishlatiladi. Kunjutning o'sish davri 80-150 kun. Issiqsevar va yorug'sevar o'simlik Urug'i 18-20° da unib chiqadi. Gullash davrida va undan keyin azot, fosfor hamda kaliyni ko'p iste'mol qiladi. Bo'z tuproqli, unumdor, dondukkakli ekinlardan bo'shagan yerlarda mul hosil beradi. Kunjut eqiladigan yer gektariga 10-15 t go'ng, 300-400kg superfosfat, 60-100kg azotli o'g'it hisobidan o'g'itlanadi. Asosan, may oyida qator oralarini 45- 60-70 sm qilib eqiladi. Gektariga 56 kg urug' sarflanadi. Har ga yerdan 810 s hosil olinadi. Turkmaniston, O'zbekistoi, Ozarbayjon respublikalari va Krasnodar o'lkasida Kubanes55, Toshkent112 va Seraxskiy470 navlari ekiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Amanova.M.E, Rustamov.A.S, Allanazarova.L.R Kunjut urug'chiligi va yetishtirish agrotexnikasi bo'yicha tavsiyanoma T-2018.b-8-9.

2.Oripov.Sh Lalmikor yerlarda moyli ekinlar yetishtirish agrotexnologiyasi.J-2017-y.b-44.

3. Amanova.M.E, Rustamov.A.S, Allanazarova.L.R Kunjut urug'chiligi va yetishtirish agrotexnikasi bo'yicha tavsiyanoma T-2018.b-8-9.

4.Gebremichael D. E. Sesame (*Sesamum indicum* L.) breeding in Ethiopia //International Journal of Novel Research in Life Sciences. -2017. -T. 4. -No. 1. -C. 1-11.

5.Ariharasutharsan G. et al. Isolation of High Yielding Early Mutants of Sesame (*Sesamum indicum*L.) Based on the Relationship Between Traits Governing Yield and Earliness //Madras Agricultural Journal. -2022. -T. 109. -No. special. -C.